VOHA AHOLISI MUSIQA SAN'ATI MAKTABINING TARIXIY ILDIZI, RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI

Bobojanov Ulug'bek Salayevich
Mustaqil izlanuvchi Urganch davlat universiteti
Email: ulugbekbobojanov51@gmail.com
Tel: +998937560727
ORCID: 0009-0003-2495-7202

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasida musiqa va raqs san'atining shakllanishi hamda rivojlanishining tarixiy-arxeologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda Burli-3, Yonbosh-4, Ko'zaliqir va Qo'yqirilganqal'a yodgorliklariga oid arxeologik ma'lumotlar tahlil qilinib, qadimgi aholining tabiiy-geografik muhitga moslashuvi, xo'jalik faoliyati, jamoaviy marosimlari va ma'naviy qarashlarining madaniy taraqqiyotdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, Qo'yqirilganqal'adan topilgan arfa tasvirlari va sozanda haykalchalari qadimgi Xorazmda musiqa san'ati mavjudligini o'rganuvchi muhim manbalar sifatida baholangan. Shuningdek, Xorazm musiqiy madaniyatining qo'shni tarixiy-madaniy hududlar bilan aloqalarini qiyosiy o'rganish masalalariga e'tibor qaratilgan. Maqolada arxeologik dalillar asosida qadimgi musiqa va raqs san'atining tarixiy taraqqiyotini o'rganish istiqbollari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, musiqa san'ati, raqs san'ati, arxeologik yodgorliklar, Burli-3, Yonbosh-4, Ko'zaliqir, Qo'yqirilganqal'a, arfa, otashgoh, qadimgi madaniyat, ma'naviy meros.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОКИ И АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НАСЕЛЕНИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В статье рассматриваются историко-археологические основы становления и развития музыкального и танцевального искусства в Хорезмском оазисе. Анализируются археологические материалы памятников Бурли-3, Янбаш-4, Кюзели-гыр и Кой-Крылган-кала, позволяющие изучить особенности адаптации древнего населения к природно-географическим условиям, хозяйственную деятельность, коллективные обряды и духовную культуру. Особое внимание уделяется изображениям арфы и фигуркам музыкантов, обнаруженным на городище Кой-Крылган-кала, которые представляют важные источники для исследования музыкальной культуры древнего Хорезма. Рассматриваются также вопросы культурных связей Хорезмского оазиса с соседними историко-культурными регионами. На основе археологических данных обозначаются перспективы дальнейшего изучения исторического развития древнего музыкального и танцевального искусства.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, музыкальное искусство, танцевальное искусство, археологические памятники, Бурли-3, Янбаш-4, Кюзели-гыр, Кой-Крылган-кала, арфа, очаг, древняя культура, духовное наследие.

HISTORICAL ROOTS AND ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE MUSICAL TRADITION OF THE KHOREZM OASIS POPULATION

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Abstract. This article examines the historical and archaeological foundations of the emergence and development of music and dance in the Khorezm oasis. It analyzes archaeological evidence from the Burli-3, Yonbosh-4, Kozaliqir, and Koy-Krylgan-Kala sites to explore the relationship between the natural environment, economic activities, communal rituals, and the spiritual culture of ancient communities. Particular attention is given to harp depictions and musician figurines discovered at Koy-Krylgan-Kala, which represent important sources for investigating the musical culture of ancient Khorezm. The article also considers cultural interactions between the Khorezm oasis and neighboring historical and cultural regions. Based on the available archaeological evidence, it outlines prospects for further research into the historical development of ancient music and dance traditions.

Keywords: Khorezm oasis, musical art, dance, archaeological sites, Burli-3, Yonbosh-4, Kozaliqir, Koy-Krylgan-Kala, harp, hearth, ancient culture, spiritual heritage.

Xorazm vohasi O‘rta Osiyoning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixiy taraqqiyoti, moddiy va ma’naviy madaniyati shakllanishida Amudaryo havzasi, tabiiy-geografik muhit hamda aholi turmush tarzi muhim o‘rin tutgan. Vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ibtidoiy jamoa davridan boshlab aholining xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, diniy tasavvurlari va san’atga oid qarashlarini o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa, musiqa va raqs san’atining kelib chiqishi hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlash qadimgi aholining ma’naviy dunyosini tarixiy jihatdan tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm vohasida musiqa san’atining dastlabki shakllanish jarayonlarini o‘rganishda ibtidoiy ovchilar va termachilarning tabiiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari, hayvonlar va qushlar tovushlari, jamoaviy marosimlar hamda olov atrofida uyushgan faoliyatlarini tahlil qilish muhimdir. Xususan, Burli-3 va Yonbosh-4 manzilgohlarida aniqlangan arxeologik ma’lumotlar qadimgi aholining turmush tarzi, jamoaviy faoliyati va ma’naviy qarashlarini yoritishda muayyan ilmiy ahamiyatga ega. Biroq tabiiy tovushlar va marosimlarning musiqa san’ati shakllanishiga bevosita ta’sirini arxeologik dalillar asosida aniqlash murakkab masala bo‘lib, bunday qarashlarni mavjud manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish zarur.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan Yonbosh-4, Ko‘zaliqir va Qo‘yqirilganqal’a kabi yodgorliklar vohaning turli tarixiy davrlardagi madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, Qo‘yqirilganqal’adan topilgan arfa cholg‘usi tasvirlari, sozanda haykalchalari va boshqa san’at namunalari qadimgi Xorazm aholisining musiqiy madaniyati to‘g‘risida muhim ma’lumot beradi. Ushbu topilmalar musiqa asboblarining shakli, ijrochilik an’analari va tasviriy san’at bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston tarixiy-geografik xududlarda keng qamrovli ravishda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ibtidoiy ovchilarning tosh davri ilk bosqichidan boshlangan, lekin bu jarayon muayyan xududlarda kechgan xolos. Misol tariqasida tosh davri ashel bosqichida Farg‘ona vodiysida Selengur, Toshkent voxasi Oxangaron vodiysida Ko‘lbuloq, Zarafshon voxasi shimoli xududida Uchtut, Ijond va Vaxsh, Ustyurt xududida Yesen-2, Qoraquduq, Churuk manzilgoxlari ovchilari va termachilari turlicha tabiiy-geografik sharoitda joylashishi kundalik ehtiyojini qondirishi oziq-ovqat va suv manbasi, mehnat qurollari uchun tosh konlari mavjudligi, flora va faunasi dunyosi zaxirasidan uddaburon va epchil foydalanish zarurat qilib belgilangan. Mazkur tarixiy davrda (Ashel davri quyi bosqichida, o‘rta tosh davrida ibtidoiy odamlarning madaniy izlari Xorazm tekisligida arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolarning ilmiy taxlili Xorazm ekspeditsiyasi turli nomda adabiyotlar sahifasida ko‘zga tashlanmaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi tosh davri so'nggi bosqichida Sulton Uvays tog'i etagiga tutashib ketgan tekislikda barpo qilingan (yirik qadamlab yurgan xayvonlar suyaklaridan tiklangan ehtimoli bor). Burli-3 manzilgoxida o'rnashgan (40-12 ming yilliklar) "Ona" urug'i ovchilari va termachilari Pleystotsen muzligi davrida "Olov Otashgoh" atrofida to'planishib kundalik bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni belgilab olganlar[1]. Demak, Burlik ovchilar muzlik manzarasi ustunlik qilish sharoitida sovuq shamol xamda qadamlab yuradigan xayvonlarning baqiroq ovozlari ma'naviy dunyosiga ta'sir qilishi musiqa bilimi ilk asosi vujudga kelgan, bu jarayon keyingi tarixiy davrda yanada sayqallashib rivojlanish jarayoni kechgan.

Mezolit va ilk neolit tarixiy davrda Burli-3 manzilgoxida o'rnashgan urug' jamoalari vorislari etnik jarayonni olib borishiga moslashgan geografik xududda sovuqtalab hayvonlarning muzlik bilan shimol tomon borishi, ular o'rniga esa nam va quruq tabiatga mos yengil tuyoqli xayvonlar, tovush ohanglari xamda xilma-xil qushlarning yoqimli ovozlari ta'siri ma'naviyatida yangicha bir-birini takror qilmaydigan musiqa bilimi rivojlanishiga olib kelgan, bu jarayonda ochiq tipda otashgoxlar muxim axamiyat kasb etgan. Xuddi otashgoh (doimo yonib turishi) axolining ma'naviyati xo'jalik soxasida turli bilimlarning to'planish markazi bo'lgan.

Otashgoh mezolit va ilk neolit davri ovchilar va termachilarning to'planish joyi bo'lgan. Sulton Uvays tog'i atroflari geografik xususiyati, tabiiy resurslari zaxiraga boy emasligi xo'jalik-madaniy tip rivojlanishi iqtisodiy omillari ovchilik va termachilik bo'lgan, shu ma'noda ajdodlarimizning ma'naviy dunyoqarashiga xam ta'sir qilgan. Mezolit davrida (mil.avv-gi XII-VII ming yilliklar) o'ziga xos xususiyatlari bilan so'nggi tosh davrida Sulton Uvays tog'i etaklarida tabiiy resurslar axoli kundalik ehtiyojini ta'minlash xolatiga ega emas edi. Ayni paytda ta'kidlash joiz bo'ladiki, mil.avv-gi V ming yillik ikkinchi yarmiga kelganda Burlik ovchilarning yangi avlodlari son miqdori oshganligi sabab, qo'shni geo iqtisodiy xududlarga ko'chish kundalik ehtiyojiga aylangan. Shu munosabat bilan Burli-3 manzilgohi "Donishmand ona" tashabbusi bilan mil.avv-gi IV ming yillik boshida (120 ga yaqin neolit urug' jamoasi bo'lgan). Hozirgi Turtkul tumani xududi geografik xolatini tasvir qilgan Qizilqum to'lqinsimon qum uyumlari oralig'ida maydonchalar qor va yomg'ir suv xavzalariga aylangan, ular soxil etaklari flora va fauna dunyosidan foydalanish maqsadida Yonboshqala balandligi yon qismiga Yonbosh-4 manzilgoxini yog'och ustunli shaklda barpo qilganlar[2] . Burlik ovchilar ota-bobolari davrida geografik manzara, antropogen landshaft, qulay ekologiya va tabiiy resurslarga boyligidan tubdan farqlangan ko'p sonli aloxida yoki bir-biriga ulanib ketgan suv xavzalari, xamda sof sernam va serunum tuproqli o'lkada xo'jalikni barcha sohalarini rivojlantirishni maqsad qilganlar[3]. Suv xavzalari soxili adog'ida qamishzor va to'qayzorlar shamol ta'sirida shitirlashlari, ularda kechki paytda o'rnashgan turli tuman qushlar nozik ohanglari xamda xujumkor yovvoyi xayvonlarning dahshatli ovozlari bilan Yonbosh-4 urug' jamoalari ma'naviy dunyosida musiqa bilimi uyg'unlashishi davom etgan.

Xorazm ekspeditsiyasi Yonbosh-4 manzilgoxida amalga oshirgan qazishalar natijalariga ko'ra, o'rta qismida yog'och ustun yaqinida ikki qator qo'yilgan ustunlar o'rtasida "Otashgoh" joylashgan, uning aylanasi 1,5 m bo'lgan, u doimo yonib turgan. Urug' jamoalari boshqarishni olib borgan "Donishmand ona" raxnomaligida "Otashgoh" atrofida to'planishib, kundalik vazifalarini bajarishni

[1] Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье-М:ИВЛ РАН, 1998-С 74-77.
[2] Толстов С.П. Древний Хорезм-М,МГУ 1948-С 59-65. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М:Наука 1968. Вып-8- С 5-12. Салаев У. Қадимги Хоразм маданияти тарихи. Бухоро "Наврўз". 2026-115 С.
[3] Толстов С.П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб-Тошкент:Фан, 1964-Б 71-75.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

belgilab olganlar. Shu bilan birga, urug‘ a’zolaridan maxsus kasbni egallab olgan ovchilar taqir yerga ovlanadigan xayvon tasvir qilib, unga nayzalarni yunaltirish jarayonida “Oh”, “O‘h”, “Xu”, oxanglari Q.Sobirov maqolasida qayd qilib, bu oxanglar “ovchilar” guruhi raqsi bo‘lib, “Lazgi” raqsining tarixiy ildizi degan xulosaga kelgan[4].

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazmda “Soz” va “So‘z ilmi” uch ming yillikdan ziyod bo‘lgan[5].

Quyi Amudaryo xududi bundan III-II ming yilliklarda musiqa ashyolari shakli, makrlari va ijro uslublari aholi ma’naviyatida shakllanganligi, ular kundalik xayot va ijod uyg‘unligida qo‘llanilishi fikriga qo‘shilish qiyin. Bronza davri jamiyatida kechgan tarixiy jarayonga e’tibor berilsa, Amudaryo toshqinida uzilishlar bo‘lganligi bois, geografik muxitda tub o‘zgarishlar yuz beradi, Sulton Uvays tog‘i atroflari eneolit davri aholisi Janubiy Oqchadaryo xavzasi-Yonboshqal’a balandligi janubi-sharqiy xududiga kelib joylashganlar. Hozirgi Turtkul tumani xududi Yonboshqal’a balandligi atrofi-ya’ni Yonboshqal’a Kukcha tog‘ tizmasi Shuraxon qishlog‘i oralig‘ida tekislikda aholi zich joylashgan xolos[6].

Mazkur xududda turar-joylar o‘rtasida Eshik to‘g‘risida joylashgan “Otashgoh” axoli ma’naviyatida musiqa bilimining yanada uyg‘unlashishga ta’sir qilgan, bu jarayon bronza davri oxirida-axoli ma’naviyatida davom etgan[7] . Misol tariqasida so‘nggi bronza davriga mansub bo‘lgan Yakke-Parsan-2 manzilgohi Kirish oldida otashgoh joylashgan, turar-joy aholisi ajdodlari amaliy faoliyatlari olib borishi jarayonida musiqa bilimini yanada uyg‘unlashtirib borganligi to‘g‘risida xulosaga kelish mumkin. Shu ma’nolardan kelib chiqib, IV ming yillik tarixida Yonbosh-4 manzilgoxida o‘rnashgan ajdodlarimizning olib borgan turmush tarzi mobaynida tabiat hodisalari va “Otashgoh” dan foydalanishi, uning keyingi tarixiy davrda musiqa shakllari va ijro uslublari vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

I.Jabbarov qayd qilishicha, o‘tgan zamonlarda voxa axolisi musiqa san’atida raqqos va raqqosalar tomonidan qo‘llar xarakati jarayonida “Jaqqu”, “Ovva”, “Hey”, “Kishtak-Kishtak”, “Oh”, “Ohay, Ohay yo” kabi iboralar Otash parastlikka borib bog‘lanishini to‘g‘ri qayd qilgan[8]. Xorazm vohasi aholisining qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri ma’naviy madaniyati tarixi masalasida ilmiy tadqiqot olib borgan D.Qurbonova tadqiqotchilarning voxa axolisi ma’naviyatida qadimiy musiqa shakli, janri va ijod uyg‘unligi uch ming yilikka oid degan xulosasiga qo‘shilmagan[9] . Lekin, tadqiqotchi masala bo‘yicha fikr-mulohazalarini qayd qilgan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining Sariqamishbo‘yi xavzasi xududi gidrografiyasini xosil qilgan Dovdon irmog‘i o‘rta qismidan shimoli-g‘arbiy tomon chiqarilgan Charmanyob sug‘orilish inshootidan Qoraqum ichki tomon chiqarilgan shaxobcha adog‘iga ulanib ketgan balandlik qirida barpo qilingan Ko‘zaliqir yodgorligi uch qatorli mudofaa devor o‘rab olgan[10]. Yodgorlik markazida 20 ga

---

[4] Собиров Қ. Қадимги Хоразм ахолиси мусиқа ва рақс санъати саҳифасидан //Буюк Ипак йўли бўйлаб халқаро туризмнинг барқарор ривожланишида маданий-мероснинг тутган ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами-Хива -2017-Б 43-44.

[5] Худайберганов С.Матниёзов А. Авесто ва мақомлар //Мозийдан садо-Ташкент. 2013 № 1 (57)-Б.4-5.

[6] Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья //ТрХАЭЭ-М:Наука, 1977 Т.Х-С 44.

[7] Итина М.А. Поселение Якке-Парсан-2 (раскопки 1958-1959 гг)-М:Наука, 1963,вып 1-С 115. Рис-6.

[8] Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012-Б 272.

[9] Қурбонова Д. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. «Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти”-Тошкент, 2015-Б 106.

[10] Толстов С.П.Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг //ТрХАЭЭ-М:Наука, 1958-Т.2-С 152.рис 38.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yaqin uy-xonalari qoldiqlari o‘rganilgan, ular devorlariga to‘g‘riburchakli yoki aylana shaklda otashgohlar joylashgan, gulxan izlari saqlanib qolgan, mil.avv-gi VI-V asrlarga oid bo‘lgan[11].

Demak voha aholisi “Otashgoh”lar ta’sirida musiqa bilimi rivojlanib kelgan, ularni loydan ishlangan sopol parchalarida aks ettirish uslubidan uzoqda bo‘lganlar.

Tadqiqotchi Q.Sobirovning insoniyatning raqs san’ati II ming yillikdan markazlashgan davlatgacha bo‘lganga qadar musiqa va raqs san’ati shakllanishida qabila sardori va ilk shaxarlarda boshqaruv tizimni qo‘lga olgan “qoxinlar” muxim rol o‘ynagan xulosasiga qo‘shilish mumkin.

Mil.avv-gi IV –III asrlar Xorazm vohasi axolisi musiqa va raqs san’ati bilimi soxasida klassik darajaga ko‘tarilgan. Mil.avv-gi IV asrdan boshlab, ajdodlarimiz tosh asri mobaynida ma’naviyatida vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish natijalaridan loydan ishlangan sopol parchalarida va uy-xonalari devorlarida aks ettirishi davr sifatida aloxida tarixiy davr hisoblanadi[12] .

Amudaryo o‘ng va so‘l soxil xududida madaniy-xo‘jalik markazlarida o‘rnashgan axoli musiqa san’ati tarixiga oid axborotlar geografiyasi ancha.

Xorazm vohasi aholisi musiqa san’atiga e’tibor bergan A.Navoi Xorazm axolisi qo‘shiqchi va muzikantlar ohangi bilan dunyoda hech kim erisha olmaydi deb qayd qilgan[13].

1951-1957 yillarda Amudaryo o‘ng soxil xududi tekislikda axoli tomonidan bunyod qilingan aylana shaklda (xajmi 86,5) . Markazida silindr shaklida inshoot (aylana xajmi 44,4 m). Mazkur inshootda qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan musiqa san’ati tarixiga oid noyob manbalar olingan. Jumladan, Qo‘y-qrilgan qala № V uy-xonasidan xukmdor dam olish jarayoni, uni orqa tomonida arfa torlarini xarakatga keltirayotgan sozanda tasviri berilgan[14]. Shu bilan birga, Qo‘yqrilgan qala atrofidan Lyutnani ushlab turgan ayol xaykalchasi olingan[15].

Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari qadimgi aholining moddiy va ma’naviy madaniyati, jumladan, musiqa va raqs san’ati tarixini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Burli-3 va Yonbosh-4 manzilgohlariga oid ma’lumotlar qadimgi jamoalarning tabiiy muhitga moslashuvi, xo‘jalik faoliyati va jamoaviy turmush tarzini yoritadi. Ushbu manzilgohlarda aniqlangan otashgohlar va boshqa arxeologik dalillar marosimiy faoliyatni o‘rganish uchun ahamiyatli bo‘lsa-da, ularning musiqa san’ati bilan bevosita bog‘liqligini aniqlash qo‘shimcha dalillar va qiyosiy tadqiqotlarni talab etadi.

Ko‘zaliqir va Qo‘yqirilganqal’a yodgorliklari vohaning keyingi tarixiy davrlardagi madaniy taraqqiyotini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Xususan, Qo‘yqirilganqal’adan topilgan arfa tasvirlari va sozanda haykalchalari qadimgi Xorazmda musiqa asboblari hamda musiqiy ijrochilik an’analari mavjud bo‘lganini ko‘rsatuvchi muhim arxeologik manbalardir. Bunday topilmalar tasviriy san’at, musiqa va marosim madaniyati o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishga imkon beradi.

Xorazm vohasining musiqiy madaniyatini qo‘shni tarixiy-madaniy hududlar, jumladan, Baqtriya, So‘g‘d va Qadimgi Sharq madaniyatlari bilan qiyosiy o‘rganish musiqa asboblari shakllari va ijrochilik an’analarining tarqalish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qadimgi musiqa san’atining kelib chiqish davri va rivojlanish bosqichlarini belgilashda arxeologik topilmalarning sanasi, topilgan joyi va madaniy qatlamiga oid ma’lumotlarga tayanish lozim.

---

[11] Толстов С.П.Кўр.асар-С 148.
[12] Собиров Қ. Қадимги Хоразм ахолиси мусиқа ва рақм санъати.. Кўр.нашр.Б 44.
[13] Навои. Семь планет. Пять поэм-М:Наука, 1948-С 405-409.
[14] Кой-крылган-кала-памятник культуры древнего Хорезма IV в до.н.э IV в.н.э-М:Наука, 1967-С 204. Рис 76.
[15] Кой-крылган-кала.. С 193.рис 74.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Umuman olganda, Xorazm vohasining arxeologik merosi musiqa va raqs san'atining tarixiy ildizlarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mavjud manbalarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularni yozma va etnografik ma'lumotlar bilan qiyoslash hamda yangi arxeologik tadqiqotlar natijalarini ilmiy muomalaga kiritish qadimgi Xorazm aholisining ma'naviy madaniyati tarixini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье-М:ИВЛ РАН, 1998-С 74-77.
2. Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани-Тошкент: "Ўзбекистон", 2012-Б 272.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья //ТрХАЭЭ-М:Наука, 1977 Т.Х-С 44.
4. Итина М.А. Поселение Якке-Парсан-2 (раскопки 1958-1959 гг)-М:Наука, 1963,вып 1-С 115. Рис-6.
5. Кой-крылган-кала-памятник культуры древнего Хорезма IV в до.н.э IV в.н.э-М:Наука, 1967-С 204. Рис 76.
6. Қурбонова Д. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. «Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти"-Тошкент, 2015-Б 106.
7. Навои. Семь планет. Пять поэм-М:Наука, 1948-С 405-409.
8. Собиров Қ. Қадимги Хоразм ахолиси мусиқа ва рақм санъати.. Кўр.нашр.Б 44.
9. Собиров Қ. Қадимги Хоразм ахолиси мусиқа ва рақс санъати саҳифасидан //Буюк Ипак йўли бўйлаб халқаро туризмнинг барқарор ривожланишида маданий-мероснинг тутган ўрни" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами-Хива -2017-Б 43-44.
10. Толстов С.П. Древний Хорезм-М,МГУ 1948-С 59-65. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М:Наука 1968. Вып-8- С 5-12. Салаев У. Қадимги Хоразм маданияти тарихи. Бухоро "Наврўз". 2026-115 С.
11. Толстов С.П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб-Тошкент:Фан, 1964-Б 71-75.
12. Толстов С.П.Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг //ТрХАЭЭ-М:Наука, 1958-Т.2-С 152.рис 38.
13. Худайберганов С.Матниёзов А. Авесто ва мақомлар //Мозийдан садо-Ташкент. 2013 № 1 (57)-Б.4-5.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.